
Yoshlar bandligi ta'minlanmoqda!

Toshloq tumanida "Uychi tumani tajribasi" asosida yoshlar orasida o'tkazilgan xatlov natijasida mahallalarda 8 ming 985 nafar yoshlarning bandligini ta'minlash yuzasidan vazifalar belgilab olinib, ijobiy ishlar tashkil etib kelinmoqda. Bugun tumandagi Teraktagi MFY, Vatan ko'chasi, 145-uyda yashovchi Yusupov Elyorbek Soyibjon o'g'lining ishsiz ekanligi, sartaroshlik hunariga egaligi munosabati bilan Sektor rahbarlari - tuman prokurori Sh.Musaev, IIB boshlig'i A.Kattabekov, tuman hokimi o'rinbosari E.Madaminovlar hamda Yoshlar bo'limi rahbari D.Yuldashevlar tomonidan subsidiya tariqasida sartaroshlik uchun zaruriy jihozlar va mebel mahsulotlari topshirildi. Shu kabi ishlar natijasida tumandagi 121 nafar yoshlarning bandligi ta'minlanishiga erishildi.

2024-09-26 11:05:09